

DAVLAT XIZMATIDA MANFAATLAR TO`QNASHUVINING OLDINI OLISH MEXANIZMLARI

Sharipov Firdavs Xolnazarovich

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti, Toshkent shahri

Annotatsiya: Mazkur maqolada manfaatlar to`qnashuvining oldini olish mexanizmlari, xususan, uning huquqiy va tashkiliy mexanizmlari, bu borada O`zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan islohotlar, shuningdek, xorijiy olimlarning nazariyalari tadqiq etilgan. Chet el davlatlarning sohaga oid tajribalari yoritib berilgan hamda takliflar ham bildirilgan.

Аннотация: В данной статье исследованы механизмы предотвращения конфликта интересов, в частности его правовые и организационные механизмы, реформы, проводимые в Республике Узбекистан, а также теории зарубежных ученых. Освещен опыт зарубежных стран в этой области, а также высказаны предложения.

Abstract: in this article, the mechanisms for preventing conflicts of interest, in particular, its legal and organizational mechanisms, the reforms carried out in the Republic of Uzbekistan in this regard, as well as the theories of foreign scientists, are studied. The field experiences of foreign countries have been covered and proposals have been made.

Kalit soʻzlar: korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to`qnashuvi, davlat xizmati, qonun, mexanizm.

Ключевые слова: коррупция, противодействие коррупции, конфликт интересов, Государственная служба, закон, механизм.

Keywords: corruption, anti-corruption, conflict of interest, public service, law, mechanism.

So`ngi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida O`zbekistonning korrupsiya va manfaatlar to`qnashuviga qarshi kurashishda ijobiy o`zgarishlar kuzatilmoqda. Lekin qayd etish lozimki, manfaatlar to`qnashuvi o`zining tarixiy ildiziga ega ekanligi, mamlakatlar uzoq vaqtlardan beri unga qarshi kurashib kelayotgan bo`lsa-da, bugungi kunda ham ta`siri davlat va jamiyat hayotiga juda kattaligi, shuningdek yildan-yilga zamonaviy ko`rinishlari yuzaga kelayotganligi sababli unga qarshi kurashish strategiyasi ham rivojlantirib borishi lozim.



Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev korrupsiyani bartaraf etmasdan turib haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta ham tarmog'i rivojlanmaydi, bu borada davlat xizmati institutini isloh qilish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarni joriy etish lozim¹ligini ta'kidlaydi.

Davlatning korrupsiya va uning turli ko'rinishlariga qarshi kurashish bo'yicha kelajakdagi siyosatini amalga oshirish, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni joriy etish soha rivojiga xizmat qiladi. Davlat xizmatida belgilangan qonun-qoidalarga amal qilib faoliyat yuritadigan davlat xizmatchilari bilan bir qatorda, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarga yo'l qo'yadigan xodimlar ham mavjud. Bu ularda shakllangan axloq qoidalari va etika prinsiplariga bog'liqdir. Lekin huquqiy davlatda qonunbuzilish holatlarini oldini olish, avvalo, axloq kategoriyalariga, davlat xizmatchisining vijdoni yoki etikasiga bog'lab qo'yilmaydi, mavjud qoida buzilish ehtimollari huquq normalari bilan tartibga solinadi.

Shu ma'noda, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish asosiy mexanizmlari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

- manfaatlar to'qnashuvining oldini olishning huquqiy mexanizmlari;
- manfaatlar to'qnashuvining oldini olishning tashkiliy mexanizmlari.

Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish tizimini takomillashtirish bo'yicha shakllanayotgan ilmiy-nazariy yondashuvlarga e'tibor qaratisa, ayrim olimlar guruhi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mukammal natijaga erishish imkonsiz hisoblanib, bugungi kunga qadar juda kam yutuqlarga erishilganligini², boshqa olimlar guruhi esa aynan mamlakatda korrupsiyaning tamomila oldi olinishini hukumat vakillarining o'zlari istamasligini va bu ularda axloqan buzuq xulqning shakllanganligi bilan bog'liqligini aytib o'tadilar³.

Bundan tashqari, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishdagi mavjud muammolar xususiyatidan kelib chiqib, qator milliy va xorijiy olimlar o'z ilmiy qarashlari asosida davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to'qnashuvini samarali boshqarish va bu boradagi ijobiy mexanizmlarni joriy etish yuzasidan o'z munosabatlarini bildirib o'tganlar. Xususan, O.Kostyakning ta'kidlashicha, davlat

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 23.12.2017.

² Heeks R., Mathisen H., 2012. *Understanding success and failure of anti-corruption initiatives. Crime Law Social Change* 58 (5), pp. 533-549.

³ Fritzen S., 2005. *Beyond "political will": how institutional context shapes the implementation of anti-corruption policies. Polity Soc.* 24 (3), pp. 79-96.



xizmatidagi manfaatlar to'qnashuvini hal qilish mexanizmini ishlab chiqish boshqaruv jarayoniga doimiy ta'sir ko'rsatish, uni tizimli tahlil qilish, korrupsiya xatarlariga eng ta'sirchan bo'lgan davlat hokimiyat organlari faoliyatining monitoringini olib borish, shuningdek oqilona va samarali qarorlarni qabul qilish, ularning bajarilishini nazorat qilish imkonini beradi⁴.

Yana bir olim O.Kazachenkova esa qonun hujjatlarida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va hal qilish bo'yicha ayrim noaniqliklar mavjudligi, atamalar noo'rin ishlatilganligi, davlat xizmatiga oid qonunchilik tizimli emasligi sababli sohani tartibga soluvchi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni joriy etish ehtiyoji haqida aytib o'tgan⁵.

Mamlakatimizda 2020-2023 yillar davomida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida 15 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Korrupsiya va uning turli ko'rinishlarining oldini olishga qaratilgan mexanizmlarni yaratish bo'yicha chora-tadbirlar va ularning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunida mustahkamlangan. Mazkur Qonunda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar sifatida shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymaslik, holat xususida xabar berish va javobgarlik asosi belgilangan bo'lsada, qonunda mavjud barcha korrupsiyani oldini olishga qaratilgan tadbirlarni uning bir ko'rinishi bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini huquqiy tartibga solishga nisbatan ham to'liq tatbiq etish mumkin. Ayniqsa, davlat boshqaruvi sohasida korrupsion holatlarni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar bevosita davlat xizmatchilari faoliyati bilan bog'liq. Bu borada: hisobdorlik va mas'uliyatni oshirish, davlat xizmatining ochiqligini ta'minlash, davlat xizmatchilari doimiy parlament va jamoat nazorati ostida bo'lishi, ijtimoiy muhofazasini ta'minlash, kasbiy faoliyatni baholash standartlarini joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Qo'shimcha ravishda qayd etish kerakki, O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 19-moddasida davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar belgilangan⁶ bo'lib, mazkur qoidalar asosida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish masalalarini tahlil

⁴ Костюк О.Н. Порядок разрешения конфликта интересов на государственной службе // Мир современной науки. - 2012. - № 3. - С. 83-91.

⁵ Казаченкова О.В. Административно-правовое регулирование разрешения конфликтов интересов на государственной службе: аспекты противодействия коррупции // Административное и муниципальное право. - 2010. - №2. - С. 64-70.

⁶ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 1-son, 2-modda.



1-TOM, 12-SON

qilish maqsadga muvofiq. Zero, manfaatlar to'qnashuvini hal etish mexanizmlarini qonunchilik talablari asosida tartibga solish nizoli holatlarning yuzaga kelish ehtimollarini minimallashtiradi.

Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish mexanizmlaridan biri sifatida davlat xizmatchisining shaxsiy foydadan, taklif qilingan moddiy manfaatdorlikdan voz kechishi va o'z-o'zini rad qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada huquqshunos olim yuqoridagi kabi holat yuz berganda samarali yechim sifatida davlat xizmatchisining o'z tashabbusi bilan o'zini o'zi rad etishi va funksional vazifalarni boshqa shaxsga o'tkazishini aytib o'tadi⁷.

Qayd etbi o'tish kerakki, davlat boshqaruvida barcha sohalarni ma'muriy-huquqiy usul, kuch va vositalar bilan samarali tartibga solish imkonsiz. Shu sababli, axloq kategoriyasi ham samarali mexanizm hisoblanadi. Davlat muassasalarida korrupsiyaning eng past darajasi bo'lgan davlatlar reytingida yetakchi mavqega ega bo'lgan bir qator xorijiy davlatlar tajribasi, jahon amaliyotida ham axloqiy yutuqlar asosiy ko'rsatkich hisoblanadi⁸. Bu borada Kanada tajribasida xodimlarning ish faoliyati yoki hamkasblari bilan bog'liq holda yuz beradigan manfaatlar to'qnashuvini oldini olish nafaqat burch, balki yuqori darajadagi axloqiy xulq-atvor bilan ta'minlanadi⁹. Bundan tashqari, ayrim olimlar davlat xizmatidagi manfaatlar to'qnashuvini hal qilish mexanizmi sifatida kasbiy ta'lim va ijtimoiy motivatsiya usullariga urg'u beradilar¹⁰.

Yuqoridagi olimlar fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvini samarali boshqarish va hal etish, bu kabi holatlarning yuzaga kelishini oldini olishda axloqiy yutuqlar yechimlardan biri sifatida baholaymiz.

Shu bilan birga, manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda javobgarlik masalasi ham muhim mexanizmlaridan biridir. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuni qabul qilinib, 2022 yilning 1 yanvaridan boshlab, barcha davlat xaridlari (eng yaxshi takliflarni tanlash va tender xarid qilish)

⁷ Ноздрачев, А.Ф. *Формы и способы регулирования конфликта интересов по законодательству Российской Федерации и зарубежные страны // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного права. - 2016. - № 6. - С. 42.*

⁸ Рамазанов, К. *Современные проблемы реализации регулирования конфликта интересов на государственной гражданской службе // Система подготовки управленческих кадров Российской Федерации в условиях модернизации (20-летия Президента). Сборник трудов конференции. – Саратов, 2012. - С. 68.*

⁹ *Реформа государственной службы: канадский опыт и российская деятельность / под ред. А.Г. Барабашева, С.В. Кабышева. - М.: Формула права, 2006. - С.105.*

¹⁰ Пчелинцев, С.В., Пчелинцев, С.С. *Некоторые вопросы этического регулирования в государственном управлении: голландский опыт «надлежащего управления» // Вопросы государственного и муниципального управления. - 2009. - № 1. - с. 49.*



1-TOM, 12-SON

tartib-taomillarini majburiy tartibda elektron shaklda o'tkazilishi joriy qilindi. Davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'grisidagi kodeksining 175⁸ – moddasiga ko'ra ma'muriy javobgarlik belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni 21-moddasida davlat organlarining manfaatlar to'qnashuvining oldini olish yoki uni bartaraf etish talablari buzilishiga yo'l qo'ygan xodimlari, shuningdek ularning rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'lishi nazarda tutilgan.

Fikrimizcha, davlat xizmatining chetda qolayotgan davlat xizmatlarini ko'rsatish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, attestatsiya va ishga qabul qilish, manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berish va o'z vaqtida choralar ko'rish borasida yo'l qo'yiladigan munosabatlarga nisbatan ham javobgarlik asoslarini belgilash kerak.

Shu bilan birga, davlat xaridlari sohasida o'tkazilayotgan tender (tanlash) natijalarini majburiy tarzda ochiq e'lon qilish yo'lga qo'yildi. Davlat xaridlari doirasida tuziladigan shartnomalarda aks ettirilishi lozim bo'lgan korrupsiyaga qarshi shartlar ishlab chiqilib, xarid ishtirokchilari o'rtasida tuziladigan shartnomalarga tadbiiq etildi. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash sohasini muvofiqlashtirish va doimiy monitoring qilib borish tizimi yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, ma'muriy to'siqlar majud bo'lgan sohalarni oldini olish, korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p duch keladigan davlat xizmatchilarining faoliyat sohalari va lavozimlari ro'yxatini shakllantirish, munosabatni bevosita, ochiq va hujjatda aniq belgilangan mexanizm asosida hal etishga oid chora-tadbirlarni belgilash, shuningdek davlat xizmatini ko'rsatadigan tashkilotlarga maxsus agentliklar yoki mutaxassislarni jalb yetgan holda tizimda yuz berishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi ehtimollarini aniqlash va uni bartaraf etish tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Yana bir jihat, hozirgi investitsion va moliya bozor mexanizmlari keng tarqalayotgan sharoitda moddiy manfaat asosida manfaatlar to'qnashuvining yangi elementlari ham kirib kelmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, bu boradagi ishlarni doimo monitoring qilish va ta'sirchan mexanizmlarni joriy etish bilan bir qatorda, ularni yangilab borish ham katta ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tajribasida manfaatlar to'qnashuvini samarali boshqarish darajasiga erishishning muhim elementi sifatida jamoatchilik nazoratining kuchliligi va ularning



1-TOM, 12-SON

bu boradagi ishonchi hisoblanadi. Hatto, Singapur¹¹, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh kabi rivojlangan mamlakatlarda “Davlat xizmatida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi maxsus qonunning mavjudligi¹² uning korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishdagi ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Bu borada xorij olimlari S.Chokprajakchat va N.Sumretphollar korrupsiyaga qarshi kurashishda “jamoaviy kurashuv” yondashuvini ilgari surib, holat to‘g‘risida xabardor bo‘lganda ommaviy e’tiroz, xabar berish, anonim xatlar yuborish, davlat xizmatida to‘g‘ridan to‘g‘ri rahbarga xabar berish va boshqa usullarni taklif etadilar¹³.

Bu borada, huquqshunos olim Sh.Yakubov korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazorati, nodavlat tashkilotlarni keng jalb etish samarali mexanizm ekanligini ta’kidlaydi¹⁴. Ushbu fikrga qo‘shilgan holda fikrimizcha korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuviga qarshi kurashishda jamoatchilik nazorati, ayniqsa nodavlat tashkilotlarning ham o‘rni muhim hisoblanadi.

Davlatimizda ham mazkur masalada tashkiliy mexanizmlar joriy etildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son qarorida 2021-yil 1-dekabrda boshlab har yil yakuni bo‘yicha barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan mahalliy davlat hokimiyati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimi joriy etganligi sohada manfaatlar to‘qnashuvini kamaytirish, bu borada sog‘lom raqobat va shaxsiy mas’uliyat va javobgarlikning oshishiga olib keladi.

Huquqiy mexanizmlar tahlili bo‘yicha, bugungi kunda mamlakatning korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuviga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati tubdan takomillashtirib borilmoqda. Xususan, so‘nggi yillarda xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari asosida har bir soha kesimida korrupsiogen omillarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi, maxsus yo‘l xaritalari qabul qilinmoqda.

Davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarining samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan ochiqlik indeksi joriy

¹¹ Benedetto Francesco, Ballatore. *The reform of the Public Administration in Singapore: a model to follow in Italy?* Italian Ministry of Agricultural, Food and Forestry Policies. 29 December 2013 // https://mpira.ub.uni-muenchen.de/52685/1/MPRA_paper_52685.pdf

¹² Kulturayev Sh.Z., *O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini takomillashtirish masalalari // Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorat tizimini joriy etish: muammolar va rivojlanish istiqbollari (xalqaro onlayn ilmiy amaliy seminari materiallari to‘plami)*. T.: TDYU, 2020, - B. 331.

¹³ Srisombat Chokprajakchat, Nittaya Sumretphol. *Implementation of the code of professional ethics for Thai civil servants* Kasetsart Journal of Social Sciences 38 (2017) 129-135 p. <http://www.elsevier.com/locate/kjss>

¹⁴ Yakubov Sh.U., *Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish. Yuridik fanlar doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati*. Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi – 2018. B. 66.



etildi. Shuningdek, davlat idoralari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat, ya'ni "komplayens-nazorat" tizimi joriy etildi.

Bundan tashqari, davlat xizmatida korrupsiyaning har qanday ko'rinishini bartaraf etishda faoliyatning ochiq va shaffof ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi. "shaffof qurilish", d.xarid.uz, data.gov.uz va my.gov.uz portallarining ishga tushirilganligi bugungi kunda o'zining samarali natijasini bermoqda. Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsion xavf-xatarlarining oldini olish bo'yicha "E-Antikorrupsiya" loyihasi ishga tushirildi. Mamlakatimizda byurokratik to'siqlarni barataraf etishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-martdagi "Aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlaridan foydalanishda yanada qulay sharoitlar yaratish, bu borada byurokratik to'siqlarni qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni¹⁵ ham sohadagi islohotlarda tub burilish bo'ldi.

Yuqorida keltirganimiz ochiqlikni joriy etilganligi, ichki nazorat tizimi va korrupsion xavf-xatarlarining oldini olish bo'yicha faoliyatning yo'lga qo'yilganligi korrupsion omillar va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda navbatdagi eng muhim masalalardan biri bu davlat xizmatchilarining mol-mulkini deklaratsiya qilishdir. Bu davlat xizmatchilarining belgilangan lavozim maoshidan ortiq qancha daromad topgani va bunda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining elementlari mavjudligini aniqlashga imkon berib, davlat xizmatida ushbu usul bugungi kunda 150 dan ortiq mamlakatda qo'llanilmoqda¹⁶.

Alohida ta'kidlash kerakki, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni himoya qilishning qonuniy asoslari yaratildi, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslarni va ularning yaqin qarindoshlarini himoya qilish hamda ularni rag'batlantirish tartibi belgilandi. "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomi, majburiyatlari, cheklovlar hamda korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar belgilandi.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 martdagi PF-6191-son "Aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlaridan foydalanishda yana-da qulay sharoitlar yaratish, bu borada byurokratik to'siqlarni qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni // QHMMB: 06/216191/0229-son.

¹⁶ Ismailov B., Abdurahmonov U., Ta'sirchan jamoatchilik nazorati korrupsiyaga qarshi kurashishda qay darajada muhim? // <https://uza.uz/oz/posts/>.



1-TOM, 12-SON

Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari tasdiqlandi hamda davlat organlari va tashkilotlarida odob-axloq komissiyalari faoliyati yo`lga qo`yildi. Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan sovg`a olinishi bilan bog`liq munosabatlar tartibga solindi, unga ko`ra, O`zbekistonda tashqaridagi xizmat safarlari va xalqaro tadbirlarda, shuningdek, O`zbekistonda o`tkaziladigan xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlarda sovg`a olish tartibi belgilandi.

Mamlakatda korrupsiya va manfaatlar to`qnashuvining oldini olishning yuqorida keltirib o`tilgan tashkiliy mexanizmlarining joriy etilganligi davlat xizmatining shaffof va qonuniy faoliyat yuritishini ta`minlaydi.

Xulosa o`rnida aytish kerakki, davlat xizmati tizimiga yangi qabul qilingan xodimlar uchun korrupsion xavfxatarlar va ayniqsa, manfaatlar to`qnashuvi bilan bog`liq maxsus o`quv kurslarni majburiy ravishda o`tashi tartibini joriy etish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, ma`lumotlar tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan birgina 2022 yilda respublikamizning 11 ta viloyatlarida olib borilgan o`rganish natijalariga ko`ra, jami 1 625 nafar davlat xizmatchilari davlat xizmati bilan birga (rahbar yoki ta`sischi sifatida) tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanib kelayotganligi aniqlangan. Shundan kelib chiqib, "Davlat fuqarolik xizmati to`g`risida"gi qonunni amaliyotda to`liq ishlab ketishini ta`minlash maqsadida davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestrini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq.

Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo`lgan sovg`a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibini belgilash bo`yicha korrupsiya va manfaatlar to`qnashuvining oldini olishga qaratilgan yangi mexanizmlar joriy etish lozim.

Yana bir muhim masala, davlat xizmatchilarining mol-mulkini deklaratsiya qilish amaliyotini joriy etish bo`lib, nafaqat daromadlarni, balki xarajatlarini ham deklaratsiyadan o`tkazish maqsadga muvofiq. Bu aynan o`rtadagi tafovutni aniqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 23.12.2017.
2. *O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 martdagi PF-6191-son "Aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlaridan foydalanishda yana-da*



1-TOM, 12-SON

qulay sharoitlar yaratish, bu borada byurokratik to'siqlarni qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni // QHMMB: 06/216191/0229-son.

3. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 1-son, 2-modda.

4. Heeks R., Mathisen H., 2012. Understanding success and failure of anti-corruption initiatives. *Crime Law Social Change* 58 (5), pp. 533–549.

5. Fritzen S., 2005. Beyond "political will": how institutional context shapes the implementation of anti-corruption policies. *Policy Soc.* 24 (3), pp. 79-96.

6. Костюк О.Н. Порядок разрешения конфликта интересов на государственной службе // *Мир современной науки.* - 2012. - № 3. - С. 83-91.

7. Казаченкова О.В. Административно-правовое регулирование разрешения конфликтов интересов на государственной службе: аспекты противодействия коррупции // *Административное и муниципальное право.* - 2010. - №2. - С. 64-70.

8. Ноздрачев, А.Ф. Формы и способы регулирования конфликта интересов по законодательству Российской Федерации и зарубежные страны // *Журнал зарубежного законодательства и сравнительного права.* - 2016. - № 6. - С. 42.

9. Рамазанов, К. *Современные проблемы реализации регулирования конфликта интересов на государственной гражданской службе // Система подготовки управленческих кадров Российской Федерации в условиях модернизации (20-летия Президента). Сборник трудов конференции.* – Саратов, 2012. - С. 68.

10. *Реформа государственной службы: канадский опыт и российская деятельность / под ред. А.Г. Барабашева, С.В. Кабышева.* - М.: *Формула права*, 2006. - С.105.

11. Пчелинцев, С.В., Пчелинцев, С.С. *Некоторые вопросы этического регулирования в государственном управлении: голландский опыт «надлежащего управления» // Вопросы государственного и муниципального управления.* - 2009. - № 1. - с. 49.

12. *Benedetto Francesco, Ballatore. The reform of the Public Administration in Singapore: a model to follow in Italy? Italian Ministry of Agricultural, Food and Forestry Policies. 29 December 2013 // https://mpr.aub.uni-muenchen.de/52685/1/MPRA_paper_52685.pdf*

13. *Kulturayev Sh.Z., O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini takomillashtirish masalalari // Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorat tizimini joriy etish: muammolar va rivojlanish istiqbollari*



1-TOM, 12-SON

(xalqaro onlayn ilmiy amaliy seminari materiallari to'plami). T.: TDYU, 2020, - B. 331.

14. Srisombat Chokprajakchat, Nittaya Sumretphol. Implementation of the code of professional ethics for Thai civil servants *Kasetsart Journal of Social Sciences* 38 (2017) 129-135 p. <http://www.elsevier.com/locate/kjss>

15. Yakubov Sh.U., Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish. Yuridik fanlar doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi – 2018. B. 66.

16. Ismailov B., Abdurahmonov U., Ta'sirchan jamoatchilik nazorati korrupsiyaga qarshi kurashishda qay darajada muhim? // <https://uza.uz/oz/posts/>.

17. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz

